

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Hoshimova R.A

NamDU mustaqil tadqiqotchis.

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda aksiologik yondashuv asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida qadriyatlarga asoslangan yondashuv orqali o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, axloqiy madaniyatni rivojlantirish hamda shaxsiy pozitsiyani mustahkamlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida aksiologik yondashuvning tarbiyaviy samaradorligi va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *aksiologik yondashuv, ma'naviy-axloqiy tarbiya, dunyoqarash, pedagogik ahamiyat, qadriyatlar tizimi, shaxs kamoloti, ta'lim jarayoni.*

Аннотация: *В данной работе рассматривается педагогическое значение формирования духовно-нравственного мировоззрения учащихся на основе аксиологического подхода. Освещаются возможности развития нравственной культуры, формирования национальных и общечеловеческих ценностей, а также укрепления личностной позиции обучающихся в образовательном процессе. Обоснована эффективность аксиологического подхода в воспитательной деятельности и механизмы его практической реализации в современной системе образования.*

Ключевые слова: *аксиологический подход, духовно-нравственное воспитание, мировоззрение, педагогическое значение, система ценностей, развитие личности, образовательный процесс.*

Annotation: *This study analyzes the pedagogical significance of forming students' spiritual and moral worldview based on the axiological approach. The research highlights the role of value-oriented education in developing moral culture, strengthening personal identity, and shaping national and universal values among students. The effectiveness of the axiological approach in modern educational practice and its implementation mechanisms are also substantiated.*

Keywords: *axiological approach, spiritual and moral education, worldview, pedagogical significance, value system, personality development, educational process.*

Dunyoda o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda ijtimoiylashuvni ta'minlash, qadriyatlarni samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, fanning eng samarali usullarini interpretsiyasidan keng foydalanish, kasbiy kompetentlikning aksiologik komponent klassifikatsiyasi va xususiyatlariga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari o'quvchi-yoshlarda ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashni rivojlantirishda aksiologik munosabatni qaror topganlik darajasini aniqlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

O'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashni rivojlantirishni tarkib toptirishda maktab va ijtimoiy institutlarning hamkorligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning milliy mentalitet va etnik xususiyatlarini aniqlashtirish, ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini tarkib toptirishning tarbiya texnologiyalarini takomillashtirish, ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashni rivojlantirish refleksiv modelini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'quvchilarda yoshlik yillarida o'qish, bilim egallashga nisbatan yangicha mayl vujudga keladi. Bu ularning o'z-o'zlarini takomillashtirishlari va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlari, intilishlari natijasida hosil bo'ladi. O'quvchining aqliy mehnat faoliyati ayrim tajribalar bilan chegaralanmaydi, balki ba'zi hollarda tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanish istagi pasayishi mumkin. Ta'lim jarayonida bunga alohida e'tibor qaratish lozim. Umumiy o'rta ta'limi bosqichida o'quvchilarda shakllantirilgan tadqiqotchilik ko'nikmalari ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'lim ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Ilmiy dunyoqarash o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Xuddi shu bilimlar o'quvchilar tomonidan tadqiqotchilik faoliyati natijasida qayta ishlanadi va ijodiy o'zlashtiriladi. O'quvchida vujudga kelgan ilmiy nuqtai nazarining barqarorligi unda hosil bo'lgan ilmiy dunyoqarashning tadrijiyligi va izchilligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va kengko'lamli ilmiy axborotlar maydoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishning yagona, o'ziga xos pedagogik tizimini ishlab chiqish zaruriyati bor.

"Dunyoqarash – inson ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi, olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini anglatadigan tushuncha" [61;146] ekan, mazkur tushunchaning uzoq tarixga ega ekanligini e'tirof etish lozim. Dunyoqarash negizida o'quvchilar moddiy olam manzarasini to'liq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu har bir o'quvchining olam va uning tarkibiy qismlari haqidagi tasavvuri bilan bog'liqdir. Har qanday moddiy olam manzarasining o'ziga xos jihati uning sub'ektiv aloqadorligidadir. Har bir o'quvchining olam haqidagi tasavvuri sub'ektiv xarakterga ega. O'quvchi tasavvurida olam yaxlit tarzda gavdalanadi. O'quvchining ongi mental mexanizm sifatida o'zlashtirilgan bilimlar va axborotlar yordamida barcha bo'shliqlarni to'ldirib boradi. Kundalik o'quv jarayonida bu o'zbek xalqining ijtimoiy tajribalari, o'quvchining shaxsiy tasavvurlari, idrokining mahsuli, mustaqil ijodiy fikrlashi natijalari yordamida takomillashadi. Shu tariqa o'quvchilarning moddiy olam haqidagi tasavvurlari bilimlar, tajribalar, ishonchlar, idrok etilgan voqelikdan iborat bo'ladi.

Har bir o'quvchi ongidagi moddiy olam manzarasi ilmiy asoslangan moddiy borliqdan farq qiladi. O'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy dunyoqarash yordamida esa barcha savollarga javob topish mumkin. O'quvchining dunyoqarashi uning oldiga qo'yilgan barcha savollarga javob berishi uchun asos bo'lishi kerak. Chunki insonda eng zarur ehtiyojlar ham mavjud. Mazkur ehtiyojlar yordamida olam manzarasi oydinlashadi.

O'quvchining dunyoqarashi uning ongida aks etgan moddiy olam manzarasining asosiy qismidir. Moddiy olam manzarasida umumiy hamda xususiy xarakterdagi turli bilimlar o'z ifodasini topadi. Masalan, o'quvchilar Orol fojeasi, Orolni qanday qilib to'ldirish haqida bilishlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zlashtiradilar. Lekin mazkur bilimlar ularning dunyoqarashlari tarkibiga kirmaydi. Ular faqatgina Orol haqida fikr yuritgandagina mazkur bilimlarga murojaat qilishlari mumkin. O'quvchilar dunyoqarashining tarkibiga esa turli voqea-hodisalar, ob'ektlar haqidagi umumlashgan hukmlar, tasavvurlar kiradi. G'oyalarning vujudga kelishini dunyoqarashni tahlil etuvchi birlik sifatida talqin etish lozim. Shu tariqa dunyoqarashni olamning o'ziga xos negizi sifatida tushunish mumkin. Umumiy qonuniyatlar haqidagi tasavvurni o'zida mujassamlashtirgan qarashlar negizini dunyo, jamiyat va inson birligi tashkil qiladi.

Dunyoqarash, birinchi navbatda, shaxs o'zligining ifodasidir. Shaxs dunyoqarashining asosiy xususiyati uning ob'ektivligidadir. Shaxs dunyoqarashi ob'ektiv borliqning ongidagi aniq ifodasi hisoblanadi. Shaxs dunyoqarashining sub'ektiv jihati bilan ob'ektiv xususiyati orasidagi farq uning o'zi uchun deyarli sezilmaydi. Bu ikkita muhim sabab bilan izohlanadi:

1) dunyoqarash umumlashtiruvchi shaklga ega, bu haqiqatni bilish va u haqda fikrlash natijasida hosil bo'ladi, u fikr bilan oziqlanadi. Buning natijasida ob'ektiv voqelik fikriy aloqa yordamida ifodalanadi;

2) dunyoqarashning farqli jihati shundaki, u inson nuqtai nazari va mavqeini ifodalaydi. Bu shuni anglatadiki, hayotiy vaziyatlarda har bir shaxs o'z mavqeini bayon etadi va himoya qiladi. Bu inson nuqtai nazarining aniqligi hamda narsalar, voqea-hodisalarning o'zaro izchil aloqasi bilan bog'liqdir. Dunyoqarash hayotning qanday qurilishini idrok etish ifodasidir. Inson o'z dunyoqarashini ifodalar ekan, uning negizida olam haqidagi yondashuvlarni bayon etadi.

Inson o'z dunyoqarashini ifodalar ekan, birinchi navbatda, olamning qurilishi va o'z shaxsiyati haqida ma'lumot beradi. Dunyoqarashning o'zi insonni psixologik jihatdan o'rganishning eng yaxshi vositasidir. Uning yordamida shaxsning o'zligi va tafakkur tarzi o'rganiladi. Bunda dunyoqarashga asoslangan tasavvurlarning metodik tamoyillari haqida fikr yuritish mumkin. Uning yordamida inson moddiy olam manzarasini ifodalaydi. Shuning uchun dunyoqarashni shakllantirishni bolalarning yoshligidan boshlash lozim. Chunki o'quvchi o'z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishi, uni umumiy qonuniyatlar asosida ifodalashi uchun dastlab nutqni egallashi lozim.

O'quvchilarning dunyoqarashlari olamni yorqin va barqaror idrok etishlari natijasida shakllanadi. Bu, ayniqsa, o'smirlik va yoshlik davrida yaqqol seziladi. Bu yoshdagi o'quvchilar moddiy borliqni chuqur his eta boshlaydilar va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglab yetadilar. Amaliy hamda nazariy dunyoqarash o'quvchining shaxsiy o'xshashligi bilan bog'liq. Shaxsda dunyoqarashning rivojlanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Aynan bir shaxsning dunyoqarashi turli shakllar va darajalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Dunyoqarashning eng yuqori shakli nazariy dunyoqarashdir. Nazariy dunyoqarash negizida o'quvchining hayotiy-amaliy tajribasi emas, balki nazariy bilimlari ham o'z ifodasini topadi.

Shaxsiy dunyoqarashning tarkibi o'zida ikki manbani mujassamlashtiradi. Ular:

1. Shaxsiy tajribaning amaliy jihatdan umumlashuvi.
2. Shaxsning ijtimoiy-madaniy tasavvurlari.

Bu shaxsning moddiy olam bilan o'zaro munosabatini ta'minlovchi dunyoqarashning ikki qanoti sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchi o'zi yashab turgan jamiyatdagi madaniyatni mazkur jarayonning sub'ekti bo'lganidagina his etadi va anglab yetadi. Har qanday madaniyatni o'zlashtirish mavjud ijtimoiy umumiylik bilan tenglashtirilgan holda amalga oshadi. Bunday tenglashtirish dastlab oiladan boshlanadi. Ta'lim jarayonida esa uzluksiz davom ettiriladi. O'quvchi o'zini O'zbekiston jamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida his etgandagina, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va madaniyatni o'zlashtirishga kirishadi.

O'quvchining turli madaniyatlarni o'zlashtirishi uning dunyoqarashini boyitadi va milliy qadriyatlarni chuqurroq o'zlashtirishi, ularning mohiyatini anglab yetishi uchun zamin hozirlaydi. Bunda o'quvchining dunyoqarashi nafaqat milliy-madaniy, balki ko'pmadaniyatlilik asosida shakllanadi.

O'quvchilar mansub bo'lgan muayyan jamoa yoki guruh o'zining madaniy muhitiga ega. Shuning uchun ham o'quvchilar turli madaniyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi sharoitida o'z dunyoqarashlarini boyitadilar. Ular sirasiga milliy madaniyat, xalq madaniyati, kasbiy madaniyat, muloqot madaniyati, hamkorlik madaniyati, diniy madaniyat, axloqiy madaniyat kabilarni kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi — T.: O'qituvchi, 2010. — 192 b.
2. To'xtaxo'jaeva M. Pedagogika — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. — 320 b.
3. Ishmuxamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar — T.: Fan va texnologiya, 2014. — 240 b.
4. Raximov A. Ta'lim jarayonida tarbiya nazariyasi — T.: Fan, 2016. — 210 b.

5. Yo'ldoshev J. Ta'lim va tarbiya samaradorligi — T.: O'qituvchi, 2013. — 224 b.
6. Qurbonov Sh. Pedagogik mahorat asoslari — T.: Fan va texnologiya, 2015. — 198 b.